



Olimxonning Georg V ga maktubi

Mahmud Hamrayev

Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi

Hozirgi davr tarix fanida dolzarb muammolarni tadqiq etishga tamomila yangicha usulda yondashilmoqda. Zamonamiz tarix fani oldimizga o'tmish haqidagi haqiqatni aniqlashdek mas'uliyatli va muhim vazifani tazyiq va nazoratlarsiz, xolisona, turli cheklovlersiz bajarish imkoniyati yaratib berdi. Mustaqil O'zbekistonda so'nggi yillarda oshkoralik va ochiqlik siyosati tufayli ba'zi tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati aniq yoritilib kelinmoqda. Xususan, Buxoroning so'nggi amiri Amir Said Olimxon hayoti, uning siyosiy faoliyati, hukumronlik yillaridagi islohotlar haqidagi ma'lumotlar ommaga yetarlicha ochib berilmagan. Yoki ataylab buzilgan holatda talqin qilingan. Vaholanki, bu borada olib borilgan so'nggi tadqiqotlar voqeylikka boshqa tomondan qarashga imkon beradi.

So'nggi hukumdor amir Said Olimxon 1920 yil 2 sentabrda qattiq kurashdan so'ng poytaxtni tashlab sharqiy hududlar sari yo'l oldi. Vobkent, Shofirkon, G'ijduvon, Qiziltepa tumanlari va O'rtacho'l orqali Qarshi cho'liga chiqib ketdi. Amirning xotiralarida keltirilishicha, 25 ming nafar buxoroliklar va ular safiga 10 ming nafar g'ijduvonliklar unga hamroh bo'lishadi¹⁵.

Buxoroning egallanishi Amir Said Olimxonning shaxsiyatida va hayotida keskin o'zgarishlar yasadi. Ammo Buxoroyi sharif qo'ldan ketgan edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan sobiq amir Buxoro xalqining bosqinchi qizillarga qarshi mustaqillik kurashiga rahbarlik qildi. U avval Boysun, so'ng esa Hisor viloyatini o'ziga qarorgoh qilib, 6 oy davomida qizil askarlarga qarshi kurashdi. Hisorda yangi hukumat tashkil qilib, buxoroliklarning qizil askarlarga qarshi olib borayotgan jang harakatlarini muvofiqlashtirishga intildi. Amir Olimxon bu ishlar orasida tashqi dunyo bilan aloqa yuritib, yordam olishga urindi. Hisor viloyatida turgan chog'ida 1920 yilning 12 oktabrida Angliya qiroli Georg V ga maktub yozdi va undan ko'mak istadi. Xatni 15 kishidan iborat bir elchilik hay'ati bilan Angliyaning Qashqardagi konsullik qarorgohiga yubordi. Hay'at u yerga

¹⁵ Ражабов.Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши қуролли кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 йиллар). Тошкент ., “Маънавият”, 2002, 57 б.



borishi, konsullikka uchrab, uning tavsiyasiga ko‘ra Hindistonga yo‘l olishi va u yerdagi Angliyaning bosh voliysiga amirning maktubini taqdim etishi kerak edi. Said Olimxon maktubida Birinchi jahon urushidan keyingi davrdagi dunyo tuzilishiga oid Vilson tinchlik dasturi moddalarini va har bir davlat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi haqida fikr yuritib, Angliya qirolidan ko‘mak so‘rab shunday degan:

“Inonamanki, Onhazratlari ayni madatga muhtoj chog‘imizda bizdan yordamlarini ayamagaylar. Davlat o‘laroq bizga 100000 punt aqcha, o‘q-dorilari bilan birgalikda 20 ming qurol, 30 pulemyot, uchuvchilari bilan birgalikda 10 ta uchoq berish vositasila yordamsevarligingizni ko‘rsatasiz degan umiddaman. Bu narsalarning biz yuborgan odamlarga berilishi meni baxtiyor etgay. Ruslar bilan qanday urush qilinishini siz ko‘p yaxshi biladirsiz, o‘shanga munosib qurollangan 2000 yordamchi askaringizni Qorategin yo‘li orqali jo‘natsangiz, nihoyatda quvongayman. Bu oramizdagi do‘stlik va hamkorlikni kuchaytirishi shubhasizdir.”

Maktub aslida bir davlatning boshqa bir davlatga murojaati edi. Angliya hukumati istasa, shu rasmiy da‘vatga asoslanib, Buxoroga yordam qilishi mumkin edi. Ammo Angliyaning Qashqardagi konsulligi amir tarafidan yuborilgan hay‘atning Hindistonga o‘tishiga ruxsat bermadi. Rossiyaga tegishli davlatlardan biriga beriladigan bundayin yordam Casus Belli- (urushga bahona.- Rim huquqi davridan boshlab shakllangan va diplomatik amaliyotda qo‘llaniladigan yuridik termin: davlatlar o‘rtasidagi urush e‘lon qilish uchun formal sabab taxminan „urush uchun vaj“,) hisoblanadi¹⁶.

O‘sha davrdagi xalqaro vaziyatga ko‘ra, ingliz ma’murlari uchun Buxoro amirligi rus imperiyasining tabiiy “bir parchasi” hisoblanardi. Shu sababli Amir Said Olimxon sovetlarga qarshi bir “isyonchi” sifatida ko‘rilmoqda yedi. Inglizlarning sovetlarga qarashli yerlardagi hodisalarga aralashish va Turkiston o‘lkasidagi jang harakatlariga yordam berish niyati yo‘q yedi.¹⁷

Shu sababdan balki, maktub hech qanday ijobiy natija bermadi. Inglizlar tomonidan hech qanday yordam ko‘rsatilmadi. Angliya hukumati nazarida bu maktubga javob

¹⁶ Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. Тошкент. , “Тафаккур”, 2017, 58-59 бет

¹⁷ Fraster. Alim Khan and the Fall of the Bokharan Yemirate in 1920. Central Asian Survey (1988), Vol 7, №4, s.54.



qaytarish ularni sovetlarga qarshiligini anglatgandek bo'lardi. O'sha davr sharoitidan kelib chiqqan inglizlar, bunday tavakkalchilikni o'rinli deb bilishmagan. Shuning uchun ham amirning bunday taklifiga rozilik berishmagan. Bu holatda amir uchun Afg'oniston yagona yordam manbayi bo'lib qolmoqda edi. Davom etayotgan kurash uchun tashqi yordam olish masalasi amirning Afg'onistonga ketishiga sabab bo'ladi. Olimxonning bayonotlaridan tushunilishicha ham u yana qaytish niyatida chegarani kesib o'tgan, buni eshitgan bir necha o'n minglab odam ham u bilan chegaradan o'tib Afg'onistonga joylashgan. Olimxon o'z sarkardalariga aytgan so'zlari ham ketishidan maqsadi yordam olishligini anglatadi. Masalan: "Islom askarlarida harbiy anjom va qurollar kam bo'lganligi jihatidan o'n kun davomida urushib, jang qildilar, so'ngra bu bandayi ojiz yordam va madad so'rash harakatida xorijiy davlatlarga murojaat qildim. So'ng Hisor viloyatidan Ko'lob viloyatiga o'tdim. Bu viloyatda Mulla Muhammad Ibrohimbek devonbegi va Davlatmandbek devonbegi – bular Buxoro sharqidagi o'zbeklardan edi, o'zlari Buxoro davlatiga sadoqatli bo'lib, anchagina layoqatli xizmatlar, jonbozliklar ko'rsatib qo'yishgan edi, hamda bu bandayi ojizning ko'nglidagini topgan ham edi, ularni lashkarboshilikka tayin etdim. Ular ikkovini huzurimga chorlab, siporish berdim:

"Bu bandayi ojiz dorussaltana Qobulga borib, madad va ko'mak olish taraddudiga kirishay. Agar bu yerdan chiqishim sababli bizga biror ko'mak va yordam tegsa, uni bajo keltirib kelginimcha, faqiru fuqarolar osudahol kun ko'rib turishsa", dedim"¹⁸.

Bu gaplardan ma'lum bo'lishicha, Olimxon Afg'onistonga qochmagan. Aslida qurol va harbiy madad olish uchun ketgan. Ammo voqealar rivoji u kutgandek bo'lmadi. Olimxon o'z mamlakatiga boshqa qayta olmaydi. So'ngi yillarda mamlakatimizda ochiqlik, oshkoralik tamoyili asosida olib borilayotgan siyosat tariximizdagi hukumdor, xonlar, amirlarni chuqur o'rganishimizga imkon yaratdi. O'ylaymanki biz bir davr yoki hukumdorga baho berar ekanmiz avvalo o'sha davrdagi xalqaro ahvol nuqati nazaridan xulosa qilishimiz kerak

¹⁸ Amir Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Тошкент, "Фан", 1991, 10 бет.